

Sh.K.O‘rinov

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada menejmentning bugungi kundagi samarali metodlari, uni sohada qo‘llay olish tamoyillari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, umumiy menejment bilan loyiha menejmentining asosiy farqli jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Agile, Scrum, menejment, g‘oya, rejalashtirish, baholash, nazorat, qayta ishlash.

Bugungi kunda eng qimmat mahsulot bu – g‘oya bo‘lib, uning yordamida kelajak muammolari bartaraf etiladi. Inson hayotiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida, o‘zi uchun turli maqsadlarni ko‘zlagan qulaylik yaratish ustida fikr qiladi, ishlab chiqish intiladi va izlanadi. Bilamizki, “g‘oyalar uchib yuriydi” degan qarash mavjud. Ya‘niki, bugun sizda bo‘lgan g‘oya ertaga, yoki bugunning o‘zida boshqa bir individ ongida shakllanadi. Uni tutib qolish hamda hayotga tatbiq etish esa, har bir shaxsning doimiy kundalik rejalariga kirmaydi, kiritmaydi. Aynan shuning uchun ham oddiy bir shaxs ongida shakllangan g‘oya, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi olim, yoki tadqiqotchining ilmiy risolalarida nashr qilinadi, hayotga tatbiq etiladi.

G‘oyani hayotga tatbiq etishdan avval uni qoralash hamda loyihalashtirish dastlabki bosqich sanaladi. Bu borada menejerlar o‘zlarining kasbiy maktablariga tayanishadi.

Loyiha menejerlari – Aynan bir g‘oyani hayotga tatbiq etishgacha bo‘lgan davrda o‘z missiyalarini olib boradigan shaxslar sanaladi. Mazkur soha vakillari ma‘lum darajadagi diplom bilan ish olib borishmaydi, ammo sohaviy sertifikat yoki malakalarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Loyiha menejerlarining asosiy bilim va ko‘nikmalarini mexanizmlashtiradigan sistemalari mavjud. Bular Agile hamda Scrum sistemasi (metodi)dir.

Loyiha menejerlari mas‘uliyatli kasb egalari bo‘lib, ular muhim majburiyatlari o‘z zimmalariga oladilar:

- Loyihada ishlash uchun odamlar guruhini yaratish – Ma‘lum bir loyiha (proyekt)ni hayotga tadbiq etishda o‘z kasbining mutaxassislarini jalb etish – Bu loyihaning bardavom bo‘lishi hamda sifati uchun muhim omil sanaladi.
- Loyihani vazifalarga ajratish – Har bir loyiha turli menejerlar tomonidan qismlarga ajratiladi. Bu jarayon *part section* deb yuritilib projektning boshlang‘ich,

asosiy hamda yakuniy qismlarga ajratish ishlari amalga oshiriladi – Bu jarayonda har bir mutaxassis o‘z ishini bosqichma bosqich amalga oshiradi.

- Jamoaning turli a'zolariga kuchli tomonlariga qarab vazifalar berish – Mazkur protsesda loyiha menejeri to‘plangan jamoa a’zolarining kasbiy salohiyati inobatga olib, ish taqsimotini amalga oshiradi.
- Loyihani muhokama qilish uchun uchrashuvlarni tashkil qilish, masalan, loyihani boshqarish jarayonini qanday yaxshilash mumkinligi haqidagi uchrashuv tashkil etish – Bu bosqich ish jarayonini jadal rivojlantirish hamda projektning mustahkamlash uchun jamoa a’zolari hamda tashqi ekspertlar, ilmiy xodimlarning fikr mulohazalari tinglanadi hamda umumlashtiriladi.
- Belgilangan muddatda topshiriqlarning bajarilishini ta'minlash – Yuqorida loyiha 3 ta muhim davrga bo‘lgan projekt menejer, aynan mazkur davrlarni boshlanish hamda tugash jarayonlarini aniq muddatlarini belgilaydi ham nazoratga oladi.
- Byudjet va boshqa resurslarni cheklash doirasidagi vazifalarning bajarilishini ta'minlash – Loyiha menejeri moliyaviy hamda resurslarni loyiha yakuniga qadar bo‘lgan davrda teng taqsimlay oladi, ammo ayrim holatlarda resurslar va moliyaviy taqchilliklar yuzaga kelgan holatlarda cheklovlarni amalga oshiradi.

Loyiha menejerlari o‘z ishlarida muvaffaqiyat qozonish uchun ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

- ✓ **Moslashuvchanlik** – har qanday sharoitda ham ayniqsa moliyaviy yetishmovchilik davrida;
- ✓ **Tafsilotlarga e’tibor** – Ushbu ko‘nikma ko‘plab manfaatdor tomonlarga ega bo‘lgan loyihalar uchun ayniqsa muhimdir.
- ✓ **Muloqot qobiliyatlari** – ular har qanday o‘zgarishlarni, masalan, byudjetga o‘zgartirishlarni o‘z vaqtida jamoaga etkazishlari kerak.

Eng asosiy muhim jihatlarida biri – Loyiha menejeri har bir jarayonni boshlash va yakunlashi uchun kalendar sanalarida belgilashi zarur ya’niki rejalar mos ravishda ishni boshqarish.

Loyiha menejmentining umiy menejmentdan farqli jihatlari shundan iboratki:

Loyiha menejmeti – bir martalik faoliyat bo'lib, u cheklangan vaqt ufqiga ega bo'lib, u yakunlanishi kerak, shuningdek, aniq natijani yoki natijani keltirib chiqaradi. Shu tarzda, loyihani boshqarish faqat ma’lum bir davr uchun mo'ljallangan. – ya’ni ma’lum bir loyihani amalda tugatish bilan o‘z missiyalarini yakunlaydilar.

Umumiy menejment – bu doimiy jarayon bo‘lib, uning boshlanishi va oxiri ko‘rinmas jarayondir.

Loyiha menejmenti – mijoz tashkilot tomonidan belgilangan mezonlarga javob berish maqsadida bilimlarni, ko‘nikmalarni, vositalarni va usullarni loyihada qo‘llash deb ta’riflanishi mumkin.

Umumiy menejment – bu tashkilotning turli xil faoliyati va operatsiyalarini nazorat qilish va tartibga solishni, turli bo‘limlar va bo‘limlar o‘rtasida muvofiqlashtirishni ta’minlashni o‘z ichiga olgan jarayondir.

Loyihalarni boshqarish vaqtinchalik va vaqt bilan bog‘liq bo‘lgan loyihalarda qo‘llaniladi.

Umumiy menejmentni tashkilotning davom etayotgan jarayonlari yoki funksiyalarida ko‘rish mumkin.

Loyiha menejmenti – Loyihani boshqarish mohiyati o'ziga xos va takrorlanmaydigan xususiyatga ega, chunki u ma'lum bir maqsadga erishish uchun ishlab chiqilgan operatsiyalarning tabaqalashtirilgan to'plamini o'z ichiga oladi.

Umumiy menejment - umumiy boshqaruv jarayoni muntazam ravishda amalga oshiriladi, bu harakatlar umumiy xarakterga ega bo'lib, ular har kuni takrorlanib boriladi.

Loyiha menejmenti – loyiha amalga oshiriladigan joyga, ya'ni tashkilot binolari ichida yoki tashqarisiga bog'liq. Demak, ish joyi shunga qarab belgilanadi.

Umumiy menejment - butun tashkilot miqyosidagi jarayondir va shuning uchun u tashkilot ichida amalga oshiriladi.

Loyiha menejmenti – Loyihani boshqarishda, jamoa faqat qisqa muddat davomida ishlaganligi sababli, vakolat doirasi chegaralangan.

Umumiy menejment - vakolat doirasi ma'lum bir normativ hujjat bilan doimiy toki lavozimdan ozod etilgunga qadar belgilanadi.

Loyiha menejmenti – Loyiha menejmentidagi vazifalar to'plami dinamik qiymatga bo'ladi – ya'ni o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'ladi.

Umumiy menejment - umumiy boshqaruvda esa vazifalar to'plami izchil – ketma-ketlikda bajariladi.

Loyiha menejmenti – muvaffaqiyatini belgilangan mezonlarga muvofiq o'z vaqtida qoniqarli bajarilishi bilan o'lchash mumkin.

Umumiy menejment - muvaffaqiyati tashkilotning maqsadlari, vazifalari va maqsadlarini samarali bajarish bilan aniqlanishi mumkin.

Taqqoslash uchun asos	Loyiha menejmenti	Umumiy menejment
Ma'nosi	Loyiha menejmenti - loyihani vaqt va muvaffaqiyatli bajarish uchun jamoaning sa'y-harakatlarini samarali boshqarish.	Umumiy menejment deganda tashkilotning umumiy faoliyati va jarayonlarini boshqarish, resurslardan muvofiqlashtirish va unumli foydalanishni ta'minlash tushuniladi.
Jarayon	Bir martada	Davomiy
Tabiat	Takrorlanmaydigan va noyob	Takroriy va muntazam
Ish joyi	Tashkilot binolari ichida yoki tashqarisida	Tashkilot binolari ichida
Vakolat doirasi	Cheklangan (chegaralangan)	Belgilangan
Vazifalar to'plami	Dinamik	Doimiy
Muvaffaqiyat	Loyihaning belgilangan mezonlarga muvofiq bajarilishi bilan aniqlanadi.	Belgilangan maqsadlarga erishish bilan aniqlanadi.

Umumiy tushuncha uchun quyidagilarni keltirib o'tish joiz:

- 1) Rejalashtirish.
- 2) Boshlash.
- 3) Bajarish.
- 4) Monitoring.
- 5) Yakunlash.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqorida qayd etilgan Agile va Scrum metodlarini barcha sohalar kabi madaniyat va san'at sohasi amaliyotida qo'llay olish soha mutaxassisining fundamental rivojlanish asosini belgilay olish, shuningdek, boshqaruv jarayonlarini sifatli amalga oshirishda o'z natijasini beradi.

Foydalanilagan adabiyotlar:

Ражабов Тухтасин Ибодович, Ибодов Уктам Расулович ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБУЧЕНИИ ПЕСНЯМ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ МУЗЫКИ // Вестник науки и

образования. 2020. №21-2 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-natsionalnogo-naslediya-v-obuchenii-pesnyam-buharskogo-detskogo-folklor-na-urokah-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).

Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //ИТМОИЙ FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.

Ибодов У. Р. ИНСТРУМЕНТАЛЬНАЯ МУЗЫКА КАК ОРУДИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ВЛИЯНИЯ НА ЧЕЛОВЕКА //Рекомендовано к печати Ученым советом Института психологии имени ГС Костюка НАПН Украины (Протокол № 14 от 28 декабря 2020). – 2020. – С. 336.

Каюмов Ибрагим Файзуллаевич ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИСТОКИ МУЗЫКИ // Academy. 2020. №11 (62). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskie-istoki-muzyki> (дата обращения: 26.10.2023).

Каюмов Иброхим Файзуллоевич, Жураева Мафтуна МЕСТО МУЗЫКИ В ВОСПИТАНИИ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ 5-7 КЛАССОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ // Проблемы педагогики. 2020. №3 (48). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-muzyki-v-vospitanii-duhovno-nravstvennyh-kachestv-uchaschihsya-5-7-klassov-obscheobrazovatelnyh-shkol> (дата обращения: 26.10.2023).

Fayzullaevich Q. I. Culture and art values and aesthetics in formation factors. – 2021.

Kholmurodovna R. O., Esanova M. J. The Importance of Imagination and Perception in Traditional Singing Performance //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 73-74.

Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.

Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..

Ramazanova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 336-339

Каримов О. И. Садриддин Айни-знаток и любитель народной музыки //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 13 (138). – С. 21-24.

Каримов О. И. Бўлажак мусиқа ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантириш //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 377-381.

Каримов О. И. Профессиональные музыкальные взгляды будущего учителя музыки //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2 (100). – С. 17-20.

Boltayev B. N. BUXORO SHASHMAQOMI VA XORAZM MAQOM IJROCHILIGIDA MUSHKULOT (CHERTIM) VA NASR (AYTIM) YO'LLARI

VOLUME-1, ISSUE-4

SEMANTIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 776-782

Hamidovich B. B. Classification of the Bukhara Status (" Shashmakom") System //AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 109-111.

Болтаев Б. Х. Описание приёмы и методики представителей исторического генезиса и этапов узбекского музыкального обучения //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 806-813.

Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.

Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.

Azimovna, Samiyeva Mehriniso. "THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS." *Academia Science Repository* 4.04 (2023): 1067-1071.

Samiyeva Mehriniso Azimovna, & G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich. (2023). THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS. Web of Scientist: Interneti

Мустафоев Б. И. ОСОБЕННОСТИ УРОКОВ МУЗЫКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 1. – С. 46-48. *International Scientific Research Journal*, 4(04), 1067–1071

Мустафаев.Б.. МУЗЫКАЛЬНО–ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АБДУРАУФА ФИТРАТА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023 - Т. 34. – №. 34 .journal.buxdu.uz <https://buxdu.uz> Page 1 *Международный научный журнал № 2 (100), часть 2 «Научный импульс» сентябрь, 2022* 361

Мустафаев Б. Restoration of the System of Music Education in Uzbekistan in 1920 1940 Years //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.

Камолов Ш. Х. Приёмы и методы преподавания музыки в общеобразовательной школе //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 602-607

Камолов Ш. Х., Бомуродов Ш. Ш. Педагогический характер студенческой молодежи и психологический подход //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 60-62.

Равшан Р. Р. ЗАМОНАВИЙ БАЙРАМЛАР РЕЖИССУРАСИДА ХАЛҚ ИЖОДИ НАМУНАЛАРИ ТАЪСИРЧАН ВОСИТА СИФАТИДА //TA'LIM VA RIVOJLANISH TANLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 117-122.

VOLUME-1, ISSUE-4

Равшан Р. Р. ЗАМОНАВИЙ БАЙРАМЛАР РЕЖИССУРАСИДА ТАЪСИРЧАН ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 136-144.

Равшан Р. Р. ТЕАТР ТОМОШАЛАРИДА ТАЪСИРЧАН ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 145-151.

Urinov S. K., Nematullayeva S. CULTURAL CENTERS ARE A PLACE OF KNOWLEDGE AND ENLIGHTENMENT //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 100-106.

Mo'Minmirzo Zokir O. G. L. et al. TEATR FAOLIYATIDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 57-62.

Xolmo'minov M. Z. O. L. et al. MADANIYAT MARKAZLARIDA TO'GARAKLARNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 102-107.

Ravshanovich H. H. O'QUVCHI YOSHLARDA IJRO MALAKALARINI O'STIRISHDA FANLARARO ALOQADORLIK // " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE. – 2023. – Т. 8. – №. 1.

Ravshanovich H. H., Hakimovich X. J. ESTETIK TARBIYA BERISH JARAYONIDA O'ZBEK XALQINING MUSIQIY MEROSIDAN FAYDALANISH //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 73-74.

Ravshanovich H. H. MUSIQA DARSLARINI O'QITISHDA FANLARARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 11-14.

Абдуллаев К. Ф., Умурова М. Ё. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УРОКА ПЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 66-69.

Umurova M. Y. Educational Significance of Children's Folklore Songs //AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 148-152.

Umurova M. Y. Formation of Patriotic Feeling in Youth Students through Folk Songs //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 99-103.

Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. *Miasto Przyszłości*, 33, 167-176.

Ражабов, Т. И. (2021). Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий мусика фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.

VOLUME-1, ISSUE-4

Тўхтасин, Р. И. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (Special issue), 64-71.

Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN, 2795(546X),

Ражабов, Т. (2023). О ‘zbek bolalar musiqiy o ‘yin folklorining mavzuviy tasnifi. Общество и инновации, 4(5/S), 340-345.

КО‘rinov S., Sadullayeva S. MUZEYSHUNOSLIK ISTIQBOLLARI //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 26. – С. 97-101.

Orinov, Sh K., and H. Abdusalomova. "TEATRLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* (2022): 766-770.

Orinov S. K. et al. UNDER THE ADMINISTRATION OF THE FIELD OF CULTURE AND ARTS FOREIGN MODELS (US EXAMPLE) //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 27. – С. 214-221.

O‘rinov S. K., Nematullayeva S. BADIY HAVASKORLIK TO‘GARAKLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY METODLARI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 58-61.

